



O'QITUVCHILARNING DOIMIY KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VA BUNDA
AXBOROT-TEXNALOGIYALARING O'RNI VA SAMARADORLIGINI
RIVOJLANITIRISH

Zayniddinova Shaxina

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va murabbiylarning doimiy kasbiy mahoratini oshirib borish va hamda o'quvchilarga turli xil metodlar yordamida sifatli ta'lif berish ularning o'z ustida ishlab ko'nikmalarini oshirib borish va bunda axborot-texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif sifatini va samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talab va takliflar.

Kalit so'zlari: Innovatsion texnologiyalar, CPD, kadrlar, metod, kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, axborot-texnologiya.

Respublikamiz turli xil yo'naliishlar jihatidan o'z samaradorligini oshirib kelmoqda. Barcha ichida ayniqsa ta'lif sifatiga e'tibor juda ham katta ya'ni yurtimizda yetishib chiqyapgan yosh kadrlarni o'zi qiziqgan yo'naliishlarga yo'naltirish ham albatta o'qituvchilarga bog'liqdir. O'qituvchilarimiz yoshlarga to'g'ri va samarali bilim berish juda katta ahamiyatga ega. Chunki mana shu yosh avlod kelajakda mamlakatimizning gullab yashnashiga va rivojlanishiga o'z hissslarini qo'shishlari kerak bunda o'qituvchilarimizning roli kattadir. Bugungi kunda tillarni o'rganishga e'tibor juda ham katta ayniqsa, ingliz tiliga talab kundan kunga oshib bormoqda. Hozirda barcha universitetlar, institutlar, maktablar va hatotki bog'chalarda ham o'qituvchilarning bolalarga yaxshi ta'lif berishlari uchun barcha shart va sharoitlar yaratilgan. O'qituvchilar darslarni ham nazariy ham amaliy tarzda olib borishlari kerak chunki faqatgina nazariy darslar o'tilsa, o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishi yoki mavzuni unchalik yaxshi tushunmasligi mumkin. Agarda turli xil metodlar bilan amaliy darslar ham qo'shib o'tilsa bunda ham qiziqarli bo'ladi ko'roq esda qoladi va albatta tushunishga ham ancha oson bo'lib qiyinchiliklar tug'dirmaydi.

Birinchi navbatda o'qituvchilarimiz o'z kasbi jihatidan barcha talablarga javob beradigan, o'z sohasi bo'yicha mukammal tajribaga ega bo'lishi zarur. O'quvchilarga ma'lumotlarni turli xil metodlar yordamida yetkazib berishi zarur. Chunki o'qituvchilar o'z sohasi bo'yicha mukammal tajribaga ega bo'lmasa, axborot-texnologiyalardan yetarlicha foydalana olmasa, va hamda pedagogik mahoratga ega bo'lmasa, bunday holatlarda ijobjiy natijalarga erisha olmaydilar. Zamонавиу texnologiyalar davrida yangi bilimlarni o'rganish va ularni o'z vaqtida qo'llay olish ham juda muhim masalalardan biri hisoblanadi

O'qituvchilar bolalarga o'rgatmoqchi bo'lgan mavzu yuzasidan birinchi navbatda to'liq ma'lumotga ega bo'lishiga o'quvchilarga ushbu mavzuni qaysi

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



metod yordamida o'tsa qiziqarli bo'lib, bolalarni o'ziga jalg qilib samarali natijalarga erishishi mumkinligiga, mavzuni o'quvchilarga o'rgatish davomida qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berishiga qarab bolalarga dars o'tish uchun tayyorlansa albatta maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyev nutqlarida o'quvchi yoshlarning bugungi kundagi yangi va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim tizimini tashkil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligi va shuning uchun yurtboshimiz tomonidan turli xil shart sharoitlar yaratilganligi to'g'risida quyidagicha so'zladilar "Ilm-fan va ta'lim tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi."

Bundan ko'rilib turibdiki, o'qituvchilarimiz davlatimizning rivojlanishida ulkan hissa qo'shishlari uchun juda ko'p imkoniyat va erkinliklar yaratilgan. Axborot-texnologiyalari o'qituvchilarga juda ko'p resurslardan foydalanishni ta'minlash orqali CPDni (CPD-o'qituvchining bilim ko'nikmalarini oshirishga yordam beradigan doimiy jarayon) osonlashtirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi P-6108-sun farmoni va mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan :Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sun qarorda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy xodimlarga bo'lган hurmat-e'tiborni yanada oshirishga katta e'tibor qaratilgan.

Axborot-texnologiyalarning ta'lim tizimidagi afzallik tomonlari:

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darslar o'tilsa, o'quvchi ongida nazariy bilimdan tashqari amaliy bilimlar ham shakllanib boradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida darslar davomida mavzu yuzasidan turli xil foydali video materiallarni tomosha qilib, qo'shimcha ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchi ongini kengroq tushuncha, ma'lumot va tasavvurlar bilan boyitishimiz mumkin.

Innovatsion texnologiyalarga be'etibor bo'lmaslik va ulardan foydalana olish bolalarning kelajakdagi faoliyatida ham ijobjiy ta'sirini o'tkazadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarning o'qitish samaradorligini oshirishda uzlucksiz malaka oshirish zarur. Axborot texnologiyalari bu jarayonda



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



juda ko'p manbalar va raqamli vositalardan foydalanishni ta'minlash orqali muhim rol o'ynashi mumkin. O'qituvchilar uchun texnologiyani o'zlashtirib olishlari va o'qitish mahoratini oshirish uchun foydalanishlari juda muhimdir. Bu orqali ular kelajak avlodga bilim, ko'nikma va qadryatlarni yetkazish orqali jamiyatimiz kelajagini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" kitobi, 2-bob;
2. O'zbekiston respublikasining "O'zbekiston ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qonuni.